O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Sultonova Maftunaning
"5220100 filologiya(ingliz tili)" ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun

Hozirgi zamon ingliz tilida son so'z turkumi
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : o'qit.Avlayeva S.B.

"Himoyaga tavsiya etildi"
Xorijiy tillar fakulteti
dekani _____ dots. Y.Hamraeva
"_____"_____ 2017 yil

2017 yil

Mundarija:

KIRISH ……..……....3-4

I BOB. Hozirgi zamon ingliz tilida so’z turkumlari

1.1. So’z turkumlari haqida umumiy ma’lumot……..…….....5

1.2 Son haqida umumiy ma’lumot, sonning tuzilishiga ko’ra turlari …….....16

1.3 Sonlarning morfologik belgilariga ko’ra turlari ……..…….....20

1.4 Ingliz tilida sonlarning kelib chiqish tarixi …….....31

II BOB. Sonlarining grammatik xususiyatlari

2.1. Ingliz tilida sonlarning sintaktik xususiyatlari ……..….....36

2.2. Ingliz tilida sonlarning sintaktik-semantik tahlili .....…….....43

2.3. O’zbek va ingliz tillarida bir sonining alohida xususiyatlari.....51

XULOSA.....58

Foydalailgan adabiyotlar

Ilmiy adabiyotlar.....61

Badiiy adabiyotlar.....62

KIRISH

Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, o'z yo'lini, rivojlanish dasturini mamlakatning o'ziga xosligi, tarixi, madaniyati hamda rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda belgilab oldi. Ammo boshqa yangi mustaqil davlatlar singari darhol mavjud tuzumdan voz kechib, "shok terapiyasi" yoki boshqa bir qator "tez rivojlanish dasturlari"ni tanlamadi. Buning tog'riligini vaqtning o'zi isbot etdi. Mamlakatimiz mavjud tizimni sekinlik bilan isloh etib, bozor iqtisodiyotiga bosqichma bosqich o'tish yo'lini tanladi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bu dastur rivojlanishning "O'zbek modeli" deya butun dunyoda e'tirof etildi va xalq farovonligi, yurt tinchligiga o'z hissasini qo'shdi va qo'shmoqda. Bunday islohotlar nafaqat iqtisodiy-siyosiy sohada balki ta'lim sohasida ham olib borildi. Kril alifbosidan yangi o'zbek alifbosiga o'tildi. Maktab darsliklari o'z madaniyatimiz va ma'naviyatimiz asosida, so'ngi fan bilimlarini o'z ichiga olgan holda qayta ishlab chiqildi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"[1] qabul qilindi. Shu asosda litsey, kollijlar barpo etildi. Ta'lim sohasida boshqa qator ishlar qilindi va qilinmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda ingliz tili xalqaro aloqalar tiliga aylandi. O'zbekiston jahon hamjamiyatiga integratsiyalasharkan, mamlakatda ham ingliz tilining ahamiyati oshib bormoqda. Shuningdek xalqaro tarmoq (internet) materiallarini, ko'plab fan-texnika yangiliklarini ingliz tilida topish mumkin. Biz ingliz tilini nafaqat mamlakatimiz rivojiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan fan texnika yangiliklari, xalqaro muloqot uchun o'rganamiz balki mamlakatimiz tarixi, buyuk ajdodlarimiz haqida ma'lumot berish, an'analarimiz, madaniyatimizni targ'ib qilish uchun ham o'rganishimiz zaruratga aylandi. Shu sababli ingliz tilining ta'lim sohasida ahamiyati oshdi. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga

[1] I.A.Karimov "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.-O'zbekiston. 2013

yanada integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan tizim yaratildi. “Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o‘qituvchilari tayyorlandi, umumta’lim maktablarining 5-9 sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo‘yicha multimedia darsliklari, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha elektron resurslar tayyorlandi, umumta’lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko‘proq lingafon kabinetlari jihozlandi.” Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan, o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o‘qitish, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida birinchi prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan 2012-yil dekabr oyida “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori qabul qilindi.

Yurtimizda barcha rivojlangan davlatlar qatori ilm-fan rivoji va taraqqioyotiga katta e’tibor qaratilmoqda. Buning isboti sifatida prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan joriy yilda qabul qilingan ”O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”, ”Toshkent axborot texnologiyalari universitetining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlarini aytib o’tish joizdir. Aytib o’tilgan birinchi qarordan maqsad akademik litseylarda o’quv jarayoni sifati va samaradorligini tubdan oshirish, eng qobiliyatli talabalarni akadem litseylarda jamlash, umumta’lim maktablari bitiruvchilarining tanlangan kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo’lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlarni kengaytirish maqsadida qaul qilindi. Ikkinchi qaror ijrosi sifatida iqtidorli talabalar uchun Muhammad al-Xorazmiy nomidagi stipendiyani joriy etish, iqtidorli talabalar, yosh olimlar va professor-o’qituvchilarning istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari va ilmiy maqolalari davriy ravishda e’lon qilib boriladigan

”Muhammad al-Xorazmiy avlodlari” nomli ilmiy jurnalini ta’sis etish tavsiya qilingan.

Yoshlarga berilayotgan ta’lim tarbiyaga, ayniqsa oliy ta’limda berilayotgan ta’limga qaratilayotgan e’tibor 2017 yil 20 aprelda qabul qilingan ”Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida[2]”gi qarorda ham o’z aksini topgan. Ushbu qarorda oliy ta’lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish kompleks rivojlantirish bo’yicha eng muhim vazifalar belgilangan.

Barkamol avlod tarbiyasi, intellektual salohiyatini yuksaltirish vazifasi so’zsiz, ilmu-fan taraqqiyoti bilan bog’liqdir. Bu, albatta, gumanitar fanlarning ajralmas qismi bo’lgan tilshunoslikka ham oiddir. Mamlakatimizda keyingi yillarda xorijiy tillar, ayniqsa, ingliz tilining tizimi, muloqot qoidalarini ilmiy va amaliy tadqiq qilish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Zotan, zamonaviy tilshunoslik uchun lisoniy hodisalarni sintetik yondashuv asosida, ularning ko’p jihatli xususiyatlarini tizimli ravishda, nutqiy muloqot sharoitida bevosita va bilvosita namoyon bo’lishini ta’minlovchi asosiy omillarini inobatga olgan holda tadqiq qilish amaliyoti keng o’rin egallamoqda. Til birliklarining bunday keng qamrovli o’rganilishi ularning tub mohiyatini batafsil aniqlash bilan bir qatorda, har bir hodisaning alohida jihatlari, tizimda tutgan o’ziga xos o’rnini belgilash imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi zamon ingliz tili grammatikasi strukturasiga asosan tillar o’z grammatik strukturasiga ko’ra sintetik va analitik bo’ladi. Biroq bu grammatik jihatlar hamma tillar uchun xos emas. Har bir tilning o’z grammatik xususiyatlari va funksiyalari mavjud.

Tilshunos olimlarning nuqtai nazarlariga ko’ra, so’z turkumlari va ularning gapdagi vazifalari turlichadir. So’z turkumlari bir biridan ma’no va funksiyalari bilan farq qiladi. Shu sababli mazkur Bitiruv Malakaviy ishimda mustaqil so’z turkumi bo’lgan sonni uning gapdagi o’rni va funksiyasini, uning leksik xususiyatlarini imkon qadar o’rganib chiqdik, hamda prof. A.M.Muxin

[2] “Xalq so’zi” gazetasi 2017 y 21 aprel soni

nazariyasiga asosan ilmiy tadqiqot qilishga urinib ko'rdik. Chunki sonlarga oid har xil muammolar majud, asosan ularning gapdagi sintaktik-semantik funksiyalari turlichadir. O'zbek, rus va ingliz lingvist olimlari sonlar haqida turli bir-biriga qarama-qarshi fikrlar bildirishgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishining maqsadi sonlarning gapdagi o'rni va vazifalarini misollar yordamida imkon qadar o'rganib chiqish, sonlarni sintaktik komponent sifatida prof.A.M.Muxin nazariyasiga asoslanib, ularni gapdagi ishtirokiga ko'ra sintaktik-semantik analiz qilish. Sonlarni sintaktik-semantik analiz qilishda ingliz yozuvchilarining asl asarlaridan foydalanildi va ularning gapda turli sintaktik-semantik ma'nolarda kelganligini lingvistik eksperiment metodlari orqali isbotlashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Mazkur bitiruv malakaviy ishining obyekti sifatida hozirgi zamon ingliz tilida sonlar va ularning gapdagi funksiyalarini an'anaviy bosh va ikkinchi darajali bo'laklar nazariyasi hamda prof.A.M.Muxin nazariyasiga binoan son so'z turkumining sintaktik-semantik tahlilini o'rganishdir.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiyligi va amaliy ahamiyati. Yuqorida aytib o'tilganidek, hozirgi zamon ingli tilida son so'z turkumini mustaqil so'z turkumi sifatida o'rganib chiqish, gapdagi funksiyalarini o'rganish, hamda prof.A.M.Muxin nazariyasiga binoan son so'z turkumining sintaktik va sintaktik-semantik tahlilini o'rganish orqali ularning turli sintaktik-semantik ma'nolarini ifodalashini kasb etishi BMIning ilmiyligini tashkil etadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy xulosalari ingliz tilining nazariy va amaliy grammatikasi fanlari uchun ilmiy qiymatga ega bo'lib, son so'z turkumi mavzusida ilmiy maqolalar yozishda, ingliz tili grammatikasidan shu mavzuda amaliy mashg'ulotlar o'tishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida ishning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari, obyekti, ilmiyligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

I Bobda hozirgi zamon ingliz tilidagi so’z turkumlari va ularning klassifikasiyalarining asosiy prinsiplari va son so’z turkumi haqida umumiy ma’lumot, ularning ma’nosiga turlari bayon etilgan.

So’z turkumlarining mohiyati, turlariga oid tilshunos olimlarning nazariy fikrlari va qarashlari bayon etilgan. Bundan tashqari son so’z turkumi haqida va ularning anglatgan ma’nolari va grammatik belgilariga ko’ra turlari haqida batafsil to’xtalib o’tilgan

II Bobda Son so’z turkumining gap strukturasidagi sintaktik vazifalari hamda sintaktik – semantik belgilari, bir so’zining qo’shimcha ma’nolari misollar yordamida tahlil qilingan.

Tadqiqot natijasida hosil qilingan fikrlar xulosada umumiylashtirilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi betdan iborat bo’lib, ishning oxirida foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyotlar, lug’atlar ro’yxati berilgan.

I BOB Hozirgi zamon ingliz tilida so’z turkumlari

1.1 So’z turkumlari haqida umumiy ma’lumot

So’z turkumlari muammosi ham umumiy lingvistika nazariyasi, ham alohida tillar analizida katta qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. So’zlarni guruhlarga bo’lishda ularning ham leksik, ham grammatik formalari hisobga olinganligi uchun so’z turkumlari so’zlarning leksik grammatik razryadlari ham deyiladi.Masalan, ot turkumiga kiruvchi so’zlarning hammasi predmet nomini bildirib keladi. Ammo shuni qayd etish kerakki, hamma oylarning predmet bo’lishi shart emas. Ayrim so’zlar predmetni bildirmasada, baribir predmet o’rnida ishlatiladi. Masalan, ingliz tilidagi love-sevgi, joy-quvonch o’zbek tilidagi do’stlik, baxt va hakozalardir.Har bir so’z turkumiga mansub so’zlarning oziga xos morfologik formalari bo’lib, u formalar morfologik paradikmalarni tashkil qiladi. Masalan ingliz tilidagi otga qo’shilgan –s qoshimchasi son kategoriyasini, fe’ldagi –ed qo’shimchasi esa zamon kategoriyasini anglatadi. Bundan tashqari, har bir so’z turkumiga kiruvchi so’zlar gapda ma’lum bir sintaktik vazifani ham bajarib keladi. Masalan, ot asosan ega, to’ldiruvchi, kesimning predikativ qismi vazifasida, sifat aniqlovchi, kesimning predikativ qismi fazifasida, fe’l asosan gapning kesimi, ravish hol vazifasida keladi. Ikki va undan ortiq so’z turkumi gapda bir xil vazifani bajarib kelishi mumkin. Bu hozirgi ingliz tilidagi ot va fe’lda ayniqsa yaqqol ifodalanadi. Hozirgi ingliz tili morfologik ko’rsatkichga boy ema. Shuning uchun ham bir so’z turkumining formasi o’zining boshlang’ich formasi yoki o’z paradigmasining dastlabki formasida kelganida ikkinchi so’z turkumidan farq qilmasligi mumkin. Masalan: water, telephone, mistake so’zlari bir vaqtning o’zida ham ot, ham fe’l vazifasida keladi. So’z turkumlarining bir qismi yuqorida ko’rsatib o’tilgan har uchala xususiyatga ham ega bo’lishi, ayrimlari esa leksik ma’no va morfologik formaga ega bo’lsada, gapda mustaqil gap sifatida ishlatilmasligi mumkin. Shu munosabat bilan so’z turkumlari ikki qismga bo’linadi:

1. Mustaqil so’z turkumlari
2. Yordamchi so’z turkumlari.

Mustaqil so’z turkumlariga kiruvchi so’zlar leksik nuqtai nazardan mustaqil ma’noni ifodalab, boshqa so’zlar yordamisiz ham predmetlarni atab, miqdorini, belgisini qay darajada bajarilishini so’zlovchining o’z nutqi mazmuniga bo’lgan aloqasini ko’rsatadi. Mustaqil so’z turkumlari grammatik tomondan ma’lum grammatik kategoriyalar bilan bog’liq bo’lgan paradikmatik formalariga ega bo’lib, gapda ma’lum bir vazifani bajarib kelishi mumkin.

Yordamchi so’z turkumlariga gapda mustaqil maxsus ma’no anglatmay, mustaqil so’zlarni bir-biri bilan grammatik aloqaga kiritib, ular o’rtasidagi semantik, sintaktik munosabatni ko’rsatuvchi gap bo’lagi vazifasida qo’llanilmaydigan so’z turkumlariga kiradi. Yordamchi so’z turkumlariga gap tarkibida urg’u tushmaydi.Ingliz tilida tordamchi sozlarga asosan predloglar va bog’lovchilar, o’zbek tilida esa ko’makchi va bog’lovchilar kiradi.

Ot, sifat, olmoshlarning bir qismi ayrim ravishlar va fe’llar o’rganuvchi so’z turkumlarini, qolganlari esa o’zgarmaydigan so’z turkumlarini tashkil qiladi.

So’z turkumlari anglatgan leksik grammatik ma’nolari morfologik formasi yoki ma’lum paradigma yasashi, boshqa so’zlar bilan birika olishi, gapdagi vazifasi, ma’lum suffikslar vositasida yasalishi yoki derivatsion kontrastiga ko’ra guruhlarga ajratiladi.

1. Leksik grammatik ma’no deganda ma’lum so’z turkumiga kiritilgan har bir so’zning ham alohida ifodalagan konkret nominativ ma’nosi, ham umumlashgan grammatik ma’nosi tushuniladi.book, popular, government, peace kabi so’zlarning har biri alohida lug’aviy ma’noni anglatadi.Shu bilan birga ularning hammasi uchun umumiy bo’lgan predmetlik ma’nosi mabjud. Ko’rsatilgan har ikkala ma’no so’z turkumlarining asosiy me’zonlaridan biri hisoblanadi.

2. Morfologik forma. So’zlarning kategorial paradigmatik formalari bo’lib, grammatik ma’noni ifodalash uchun ishlatiladi.

Hozirgi ingliz tilida morfologik yoki kengroq qilib aytganda grammatik forma yo sintetik, yo analitik tarzda ifodalanishi mumkin:

a) Sintetik forma so’z shaklini yasovchi grammatik formalarini qo’shish yoki ichki fleksiya vositasida yasaladi. Masalan:

He works. U ishlaydi. He worked. U ishladi.

He knows many languages. U ko'p tillarni biladi.

Yuqoridagi gaplarda grammatik forma suffiksatsiya yordamida yasalgan, chunki grammatik formalar hisoblanuvchi –s(shaxs, son va zamon qo'shimchalari), -ed (o'tgan zamon formasini yasovchi qoshimcha), -(e)s (ko'plik son qo'shimchasi) so'z negiziga to'g'ridan to'g'ri agglyutinatsiya usulida qo'shilyapti. Ichki fleksiya so'zlarning o'zagidagi unlilarni o'zgartirish vositasida so'z formalari yoki grammatik kategoriyalar yasashdir. Masalan, I wrote a letter to my friend. (Men do'stimga xat yozdim). My sister has very beautiful teeth.(Singlimning tishlari juda chiroyli) gaplarida wrote (yozdim) fe'lining ichki fleksiya (ablaut) vositasida yasalgan. Hozirgi inglliz tilida ichki fleksiya juda keng qo'llanmasada, hamon o'z ifodasini yo'qotgani yo'q. Sintetik formalar qatorini ma'lum o'rinni turli so'z turkumlari uchun xos bo'lgan suppletiv formalar deb yuritiluvchi maxsus grammatik formalar egallaydi. Suppletivizm ma'lum grammatik kategoriyani turli o'zaklardan yasalgan formalar vositasida ifoda etilishidir. Masalan,

I – we (men - biz)

He, she, it – they (u - ular)

Good – better – best

(yaxshi-yaxshiroq – eng yaxshi)

"To go " fe'lining shakllari:

To go – went – gone

(ketmoq - ketdi)

b) Analitik forma ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro qo'shilishi vositasida yasalib, ulardan biri o'z leksik ma'nosini to'la saqlab qoladi. Qolganlari esa, faqat grammatik ma'nolarni anglatish uchungina ishlatiladi.

Har bir analitik formada ham leksik, ham grammatik formalar mavjud bolib, leksik element grammatik ma'no bilan qisman bog'liq bo'ladi. Masalan, perfekt kategoriyasini ifodalovchi analitik formada to have ko'makchi fe'li grammatik kategoriyani ifodalasa, asosiy fe'l leksik ma'noni va qisman grammatik ma'noni

ifodalaydi. Boshqa so'zlar bilan birikish deganda har bir so'z turkumining bir va ikki tomonlama ya'ni yo o'ng, yo chap tomondagi so'zlar bilan birika olish imkoniyati tushuniladi. So'zlarning gapdagi roli so'z turkumlarining o'ziga xos xususiyatini aniqlashdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayrim so'z turkumlari gapda gap bo'lagi vazofasida kelsa, ayrimlari bu vazifani bajara olmaydi. Shunga binoan, so'z turkumlari mustaqil so'z turkumlari (National parts of speech) va yordamchi so'z turkumlari (Structural parts of speech)ga bo'linadi. Ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l, holat kategoriyasi va boshqalar mustaqil so'z turkumlari, predlog, bog'lovchi, artikl, ko'makchi va boshqalar yordamchi so'z turkumlari hisoblanadi.

Derevatsion konkret so'z turkumlarining ma'lum so'z yasovchi affikslar bilan birga ishlatilishiga bog'liq. Ma'lumki, yangi so'z yasalganda faqat yangi leksik birlik yasabgina qolmay, bir vaqtning o'zida yangi so'z turkumi ham yasaladi. Predlog (the Preposion) U.H.Hoshimovning "Ingliz tili grammatikasining normativ kursi " asarida mustaqil ma'no anglatmay, "ot" va olmosh va boshqa so'z turkumlarining ma'nolarini to'ldirib, ularning bir-birlariga, shuningdek ma'lum hodisaga ega bo'lgan munosabatini bildiruvchi yordamchi so'z turkumlari predloglar deyiladi[3]. So'z turkumi termini (rus, nemis, fransuz va boshqa tillarda ham shu nom bilan ataladi) juda mustahkam, hammaga ma'lum termin bo'lsada, bizning fikrimizcha bu juda to'g'ri emas. Masalan, fe'l boshqa so'zlardan faqat zamon kategoriyasi bor bo'lgani uchun farq qiladi. "live" so'zining o'tgan zamon shakli faqat "lived" bo'ladi degan javob bo'lishi muqarrar, lekin shu o'rinda "city" yoki "back" so'zining o'tgan zamon shakli nima bo'ladi deyish noo'rin, noto'g'ri savol bo'ladi. Chunki zamon kategoriyasi fe'lni boshqa so'zlardan ajratib turadigan asosiy xususiyatlaridan biridir.

Ingliz tilidagi barcha so'zlar anglatgan leksik-grammatik ma'nosi, morfologik formasi va ozaro sintaktik aloqaga kirishishi hamda gapdagi vazifasiga ko'ra ma'lum guruhlarga bo'linib, ular grammatikada so'z turkumlari deb yuritiladi. Ingliz tilidagi so'z turkumlarini turli olimlar turlicha talqin qiladilar.

[3] Hoshimov U.H., "Ingliz tili Grammatikasi" T., 1968

Masalan, Dioniskiy o'zidan avvalgi olimlarning fikriga tayanib, so'zlarni quyidagi sakkizta turkumga ajratadi[4]:

1.Ot,	5.Olmosh,
2.Fe'l,	6.Predlog,
3.Sifatdosh,	7.Ravish,
4.Artikl,	8.Bog'lovchi.

Tilshunoslar Dioniskiy va Diskolning kamchiliklarini ularning izdoshlari, ya'ni stoiklar to'ldirishdi. Grammatik kategoriyalarni takomillashtirish yo'lida stoiklar tomonidan quyidagi ishlar qilindi:

1.So'z turkumlari tushunchasiga aniqlik kiritildi.

2.Tilda ifodolovchi va ifodalanuvchi elementlar borligi ko'rsatildi.

3. Ot kategoriyasiga sredniy rod tushunchasi kiritildi.

So'z turkumlari haqidagi muammo umumiy tilshunoslik nazariyasida va har bir til tahlilida eng ko'p munozarali muammolardan biridir.

So'z turkumlarini tasnif qilish uch turdagi prinsipga asoslanadi:

1) ma'no

2) shakl

3) funksiya[5]

1) Ma'no deganda biz ma'lum bir guruhga kiruvchi hamma so'zlarning umumiy ma'nosini va mohiyatini tushunamiz.Masalan, "Ot" so'z turkumiga to'xtaladigan bo'lsak, "ot" so'z turkumining so'z sifatidagi struktural ma'nosini tashkil etadi.Xuddi shunday fe'l so'z turkumining so'z sifatidagi ma'nosi ish harakatni bildiradi.

2) So'z turkumining shakli deganda biror bir so'z turkumiga kiruvchi so'zlarning morfologik xarakteristikasi nazarda tutiladi.Shunday qilib "ot " so'z turkumi son kategoriyasi (birlik, ko'plik) bilan xarakterlansa, fe'l so'z turkumi zamon, mayl kabi kategoriyalar bilan xarakterlanadi. Predlog bog'lovchi kabi bir qator so'zlarning shakli o'zgarmasligi bilan xarakterlanadi.

---

[4] Bo'ronov J.B. "Ingliz tili va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi". T., 1973

[5] B.Ilyish "The structure of Modern English". Leningrad, 1971. 27-bet.

3) Funksiya deganda biz so'zning sintaktik xususiyatini tushunamiz, bu esa ikkiga bo'linadi:

1) uning boshqa so'zlar bilan birikishi

2) uning gapdagi vazifasi.

Birinchisi frazalar (so'z birikmasi), ikkinchisi gap strukturasiga bog'liq. Masalan, 1) write letters yoki write quickly. 2) fe'lning gap strukturasidagi kesim vazifasi.

Masalan, misol tariqasida fe'l so'z turkumiga oid so'zni olib qaraydigan bo'lsak, "fe'l" "ot" so'z turkumi bilan birikadi: "write letters", "discuss questions" va shu bilan birga fe'l so'z turkumi ravish bilan ham birikadi: "write quickly", "discuss seriously". Fe'l so'z turkumining gapdagi sintaktik funksiyasi kesimdir.

Ko'pchilik olimlar so'z turkumlarini morfologiyaning bir bo'lagi deb qarashadi, lekin shunga qaramay so'z turkumlarini sintaksisga bog'lab o'rganmaslik xato bo'ladi. Bu muammoga turli olimlar turlicha fikr bildirganlar.

Akademik A.A.Shaxmatovning fikricha, so'z turkumlari sintaksisda o'rganilishi kerak[6].Tilshunos olim B.Ilyish so'z turkumlari nazariyasini ba'zi sintaktik jihatlarini ham o'z ichiga olgan holda morfologiyaning asosiy qismi deb qaraydi[7].Tilshunos olim E.M.Gordon so'z turkumlariga quyidagicha to'xtalib o'tadi[8]: "Har bir tildagi mavjud so'zlar ma'lum so'z turkumlariga mansub bo'lib, har bir so'z turkumi o'z xususiyatiga ega . So'z turkumlari bir-biridan ma'nosi, formasi va gapdagi funksiyasiga ko'ra farq qiladi".

Butun dunyo tillarida so'z turkumlarining o'rni beqiyosdir. Barcha tillarda so'zlar turkumlarga ajratib o'rganiladi. J.Bo'ronov, M.Bo'ronova,[9] M.Toshboyevalar tomonidan yozilgan "Ingliz tili grammatikasi"da so'z turkumlari 14 da deb ko'rsatiladi:

1.Ot (Noun) 2. Sifat (The Adjective)

---

[6] A.A.Шахматов "Синтаксис русского языка" M., 1941.
[7] B.Ilyish "The structure of Modern English". Leningrad, 1971
[8] E.M.Gordon, I.P.Krylova "A Grammar of Present – Day English" M., 1974
[9] Bo'ronov J.B., M.Bo'ronova, M.Toshboyaev. "Ingliz tili Grammatikasi" T.1978, 5-bet.

3.Olmosh (The Pronoun) 4. Son (The Numeral)

5. Fe'l (the Verb)

6.Ravish (The Adverb)

7.Holat kategoriyasi (The category of State)

8.Modal so'zlar (The Modal words).

9. Predlog (The Preposition)

10. Yuklama (The Particle)

11.Bog'lovchi (The Conjunction)

12. Undov so'zlar (The Interjection)

13.Artikl (The Article)

14. Javob so'zlar (The Response Words)[10]

M.A.Ganshina esa so'z turkumlarini 13 ta deb ko'rsatadi.Ular quyidagilar: ot, sifat, olmosh, son, fe'l, ravish, predlog, bog'lovchi, artikl, yuklama, modal so'zlar, tasdiq va inkoq gaplar , undov so'zlar.

V.L.Kaushanskayaning "A Grammar of English language" asarida so'z turkumlari quyidagilarga ajratiladi: ot, sifat, olmosh, son, fe'l, ravish, holat kategoriyasi, modal so'zlar, undov so'zlar.

Yordamchi so'z turkumlari: Predlog, Bog'lovchi, Yuklama, Artikl.

Tilshunos olimlar K.N.Kachalova, E.E.Izrailevich[11]lar so'zlarni quyidagi belgilariga ko'ra so'z turkumlariga ajratishadi:

1) ma'nosiga ko'ra 2) gapdagi vazifasiga ko'ra

2) so'z yasash formasiga ko'ra 4) so'z o'zgarish formasiga ko'ra

Ingliz tilida so'z yasalish formasi va so'z o'zgarishi bir so'z turkumini boshqa so'z turkumidan ajratishda unchalik ahamiyat kasb etmaydi.Tilshunos olim K.N.Kachalova[12] so'z turkumlarini quyidagi so'z turkumlariga ajratadi: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, predlog, bog'lovchi, undalma

[10] Ganshina M.A. va Voselevskaya, "English Grammar", Higher School Publish House, M.,1964.
[11] К.Н.Качалова, Е.Е.Израилович " Практическая грамматика английского языка" М., 1996.
[12] К.Н.Качалова, Е.Е.Израилович " Практическая грамматика английского языка" М., 1996.

K.N.Kachalova ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravishni ularning gapdagi predmetni , belgin, ish-harakatni va gapda ma'lum bir sintaktik funksiyani bajarganligi uchun mustaqil so'z turkumlariga ajratadi. Predlog, bog'lovchi va artiklni yordamchi so'z turkumlariga ajratadi. Undalmani Kachalova mustaqil so'z turkumiga ham, yordamchi so'z turkumiga ham kiritmaydi, chunki ular gapda hech qanday sintaktik funksiyani bajarmaydi.

Bundan tashqari tilshunos olim E.M.Gordon[13] so'zlarni 3 asosiy guruhga bo'ladi:1) mustaqil so'zlar 2) yordamchi so'zlar 3) mustaqil elementlar.

Mustaqil so'zlarning aniq leksik ma'nosi bo'lib, ular gapda mustaqil funksiyani bajaradilar. Demak, ular gapda gapning bosh bo'laklari bo'lib kelishi mumkin. Mustaqil so'zlarga fe'l, ot, sifat, son, olmosh va ravish so'z turkumlsriga kiruvchi so'zlar kiradi.

Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlardan semantik jihatdan farq qiladi. Yordamchi so'zlar gapda biror bir funksiyani bajarmaydi.Lekin ular gapda so'zning ma'nosini aniqlaydi.Masalan, "the" yoki "a" artikllarini olib qaraydigan bo'lsak

a table	the table
stol (noma'lum)	stol (ma'lum)

Ingliz tilida artikl, yuklama, predlog va bog'lovchilar yordamchi so'z turkumlariga kiradi. Mustaqil elementlar turli ma'nolari bilan xarakterlanadi. Mustaqil elementlar gapda hech qanday sintaktik funksiyani bajarmaydi. Masalan, He **certainly** knows all about it. U **albatta** buni biladi.

Mustaqil elementlar ba'zan bittta gapni taskil qilishi ham mumkin. Masalan, Yes. No. Alas.

Mustaqil elementlarga E.M.Gordon[14] quyidagilarni kiritadi: 1.Modal so'zlar (Modal words) 2.His-hayajon so'zlar (Exclamatory words)

3.Tasdiq va inkor so'zlar.

[13] E.M.Gordon, I.P.Krylova "A Grammar of Present – Day English" M., 1974

[14] E.M.Gordon, I.P.Krylova "A Grammar of Present – Day English" M., 1974

1.2 Son so’z turkumi haqida umumiy ma’lumot, ularning tuzulishiga ko’ra turlari.

Sonlar mustaqil ma’noli tobe so’zlardan iborat bo’lib, predmetning miqdorini va tartibini ko’rsatadi, qancha?, necha?, nechanchi? kabi so’roqlarga javob bo’ladi. Son otga bog’lanib, uning sanog’ini miqdorini (ikki talaba, besh bola, o’nta daftar kabi), miqdorga bog’liq tartibini, darajasini (ikkinchi kurs, beshinchi uy kabi) va otga bog’lanmagan holda mavhum miqdor tushunchasining nomini (three and four is seven - uch bilan to’rt yetti bo’ladi, five multiple five is twenty five - besh karra besh yigirma besh kabi) bildiradi.

Sonlar harf bilan yoziladi (besh, o’n, o’n to’qqiz, ikkinchi, yettinchi) yoki arab raqami bilan (5, 10, 14, 19, 2-, 7-), rim raqami bilan (V, X, XIV, XIX) ko’rsatiladi.

«Predmetlarning sanog’i va aniq miqdori uchun ishlatiladigan so’z» sonning so’z turkumi sifatidagi umumiy grammatik ma’nosidir. Sanaladigan predmetlar uchun ishlatilganda ularning sanoq va miqdorini anglatadi. Son so’z turkumi sifatida predmet ifodalovchilari bilan munosabatga kirishib, shu jihati bilan sifat va ravish turkumiga yaqin turadi. Biroq aniq miqdor bildiruvchi bu so’zlar predmetlarning noaniq miqdorini bildiruvchi *oz, ko’p, mo’l* kabi sifatlardan ajralib turadi. Sifatlar raqam bilan ifodalanmaydi. Son esa noaniq miqdorni bildirganda ham raqam bilan beriladi: three or four days -- *uch-to’rt kun* (*3-4 kun*). Bu esa ular anglatgan miqdor noaniqligi ham nisbiy ekanligidan dalolat beradi.

Songa oid so’z matematik son ma’nosida esa faqat sonlarning nomini bildiradi. Demak, predmet nomini anglatuvchi so’z bilan munosabatda namoyon bo’ladigan ma’nosi bilan son so’z turkumini tashkil etadi.

Miqdor tushunchasi juda mavhum bo’lgani sababli, uni ifodalovchi so’z ham mavhum xususiyatga ega. Son shu xususiyati bilan boshqa so’z turkumidan farq qiladi. Masalan, besh, o’n iki, yigirma uch, bir yuz o’n to’qqiz kabi sonlar alohida olinganda, faqat mavhum miqdor tushunchasinigina ifodalaydi. Sonning ma’nosi u biror narsa nomini bildirgan so’z bilan bog’langandagina anqlanadi: beshta

daftar-five notebooks, o’n ikki kishi –twelve (dozen) people, yigirma uch o’quvchitwnety-three pupils kabi.

Bir sonidan katta barcha sonlar otning ko’plik shakliga xos birdan ortiqlik, ko’plik tushunchasini aniqlab ifodalashga xizmat qiladi. Bunday sonlar bilan birikkan ot o’zbek tilida ko’plik yasovchi –lar affiksini olmaydi. Talabalar keldi— to’rt talaba keldi, kitoblar oldim – o’n ikkita kitob oldim kabi. Son har vaqt sanalishi mumkin bo’lgan predmetlarni anglatgan otlar bilan qo’llanadi, ularni miqdor jihatidan aniqlab keladi.

Ingliz tilida sonlar strukturasiga (tuzilishiga) ko’ra quyidagi turlarga bo’linadi: a) sodda (Simple numerals) sonlar, yasama sonlar (Derived numerals), qo’shma sonlar (Compound numerals) va murakkab sonlar (Composite numerals).

Sodda sonlar bir o’zakli so’zlardan (one, two, three, four, five, etc.) tashkil topadi. 1 dan 12 gacha bo’lgan sonlar, 100, 1000, 1000 000 sonlari sodda sonlar hisoblanadi, ya’ni a hundred, a thousand, a million kabi.

Sodda sonlarga affikslarning qo’shilishidan yasama sonlar yasaladi, ya’ni 13 dan 19 sonigacha bo’lgan sonlar –teen qo’shimchasini olish orqali yasaladi, o’nliklarni bildiradigan sonlar –ty qo’shimchasi yordamida yasaladi: thirteen o’n uch, fourteen o’n to’rt; twenty yigirma, thirty o’ttiz, forty qirq.

Ikki va undan ortiq sonlarning o’zaro qo’shilishidan qo’shma sonlar yasaladi, ya’ni 21 da 29 gacha bo’lgan sonlar, 31 dan 39 gacha bo’lgan sonlar va shu kabilar murakkab sonlar hisoblanadi: twenty-one yigirma bir, twenty-five yigirma-besh, thirty-two o’ttiz ikki.

Murakkab sonlar bir va bir necha o’zakli sonlarning erkin birikishidan yasalgan sintaktik birikmalardan tashkil topadi,: one thousand and twenty eight bir ming yigirma sakkiz.

Sonlar birlik, o’nlik, yuzli, minglik sistemasida qo’llanadi, ya’ni avval birdan o’ngacha sonlar (birliklar) ayrim so’zlar bilan ifoda qilinadi. Keyin har qaysi o’nlikning o’ziga xos nomi bor. Yuz, ming shu so’zlar bilan ifodalanadi. O’nliklar orasidagi miqdor o’nlik nomiga birlik sonni qo’shib tuziladi. Undan keyin minggacha yuz ichidagi sonlar qaytariladi. Sonning shu tariqa ifodalanishi

birlik, o’nlik, yuzlik, minglik sistemasini tashkil qiladi. Bu sistemaning qismlari qat’iy tartibga bo’ysinadi. Bu sistemada jami son bildiruvchi 20 ta so’z (million, milliard so’zlaridantashqari) bo’lib, ular juda katta miqdorlarni ko’rsatishga xizmat qiladi.

Ingliz tilida sonlar kontekstga bog’liq holda, ya’ni turli holatda turlicha o’qiladi. Biz quyida ularning ayrimlarini aytib o’tamiz:

0 (nol) soni -- quyidagi shakllarda o’qiladi:

Zero: fanda oid ma’lumotlarda rasmiy tarzda o’qiladi

naught / nought: Britaniya varianti hisoblanadi

aught: arxaik so’z hisoblanadi, lekin ba’zan sifr orasida o’rta raqamda kelganda aytiladi . Masalan, "thirty-aught-six", the .30-06 Springfield riflecartridge and by association guns that fire it)

oh[ou]: telefon raqamlari, bank hisob raqami, avtobus qatnovi raqamida ishlatiladi

- umumiy holda sport o’yinlarida hisobni aytishda ishlatilib, Britaniya varianti hisoblanadi: The score is two-nil. Hisob ikkiga nol.

-- null: biror narsa yoki fikrga nisbatan hechqancha, hech narsa degan ma’nolarni anglatadi;

__ love (Fransuz tilidan olingan): tennis, badminton, kabi sport o’yinlarida ishlatiladi;

-- zilch, nada (Ispan tilidan kelib chiqqan), zip --- norasmiy holda ishlatilib, hech narsa so’ziga urg’u berib aytishda ishlatiladi, bular birgalikda ham kelishi mumkin.Masalan: "You know nothing—zero, zip, nada, zilch!"Sen hech narsa bilmaysan, butunlay “nol”san!

-- nix - bu shakl ham fe’l sifatida ishlatiladi.

1 (bir) – one shaklidan tashqari quyidagi shaklda ham o’qiladi:

- “ace” [eis] ----- tennis va golf kai sport o’yinlarida (eng mohir, eng zo’r o’yinchi ma’nosida), karta o’yinida (eng yuqori achko hisolangan tuz ma’nosida) ishlatiladi. M., the ace of hearts, an ace tennis player.

- ”Solo” [seuleu] --- biror harakatni faqat bir kishi, yakka holda bajarishida ishlatiladi. His first solo flight – Uning birinchi marta yakka(yolg’iz) o’zi parvoz qilishi.

  He wanted to fly solo across the Atlantic. U Atlantika dengizi bo’ylab yolg’iz o’zi uchib o’tishni xohladi.

  She sang solo. U qo’shiqni bitta (yakka) o’zi kuyladi.

“|Unit”[junit] eng kichik son, ya’ni birlik son ma’nosida ishlatiladi. The numer 34 consists of three tens and four unit. 34 soni tarkibida uchta o’nlik va to’rtta birlik son mavjud.

3 soni quyidagi shakllarda ishlatiladi:

Trio – uchlik, uchtalik ma’nosida ishlatililadi. Kishi yoki narsadan uch kihi yoki uchta narsadan tashkil topganligini anglatadi. Qo’shiq yoki musiqa asbobi uch kishi tomonidan ijro etilsa trio so’zi yordamida aytiladi. Masalan: a piano trio, (a violin trio) –uch kishi o’lib pionino (violenchalo) chalish. A trio of number 9 buses came by. Uchta to’qqizinchi raqamli avtous o’ti ketdi.

4 soni quyidagi shakllarda ishlatiladi:

--cater

Quartet –kvartal ma’nosini beradi.

1.3 Sonlarning morfologik belgilariga ko'ra turlari

Sonlar ma'no xususiyati va morfologik belgilari jihatidan dastlab ikkiga bo'linadi:

1. Sanoq (miqdor) son (Cardinal numerals)

2.Tartib son. (Ordinal numerals)

Sanoq sonlar shaxs yoki buyumlarning miqdorini bildirib how many? nechta? so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan one, two, three va h.k. I have got two brothers. Sanoq sonlar o'z navbatida yana jamlovchi son, chama son, donalik son, taqsim son, kasr son va boshqa turdagi sonlarni yasah uchun manba va asos bo'lib xizmat qiladi.

Sanoq va tartib sonlar o'zaro quyidagi munosabatlarga ega:

- sanoq sonlar hisob so'zlari bilan qo'llana oladi, tartib sonlar esa bunday xususiyatga ega emas:ikki gektar –two acr,o'n kilogram-ten kilogramm, besh juft-five pair of;

- sanoq sonlar juftlasha oladi, tartib sonlarda esa bunday xususiyat yo'q;

- sanoq sonlarga *beshdan bir, uchga bir* kabi birikmali qo'llanishlar xos, tartib sonlarga esa xos emas;

- sanoq sonlar ko'plik shaklini olganda taxminiy miqdor bildiradi (*uchlarda keldi*), tartib sonlar esa bunday holda otlashib ketadi: seconds- second people, *birinchilar – birinchi odamlar.*

Sanoq sonlar belgisiz, tartib sonlar belgilidir (-th). Bu belgi tartib sonlarning marker (marker) deyiladi va ular shu marker orqali o'zaro oppozitsiyaga kiradi: five-fifth ya'ni [v] tovushi [f]ga, [ai] tovushi [i] ga aylanadi.

1) Ingliz tilida yillar sanoq sonlar bilan qollaniladi. A.S.Pushkin was born in 1799. A.S.Pushkin 1799 yilda tug'ilgan.

Yillarni ifodalovchi sanoq sonlar ikkiga bo'linib, har biri alohida-alohida joylashuv tartibida sanoq son bilan o'qiladi. 1848 – eighteen fory eight, 1986 – nineteen eighty six.

2) Kitob sahifalari, boblari, kitob qismlari, auditoriyalar, uylar, tramvay raqamlari sanoq son bilan ishlatiladi. Open your books at page 23. Kitobingizning yigirma uchinchi sahifasini oching.

Read paragraph 5 (five). Bechinchi paragrafni oching.

Figure 6 (six) shows an appartatus for counting the number of alpha-particles.

3) Ingliz tilida arifmetik natijani ifodalovchi "to be" fe'li ham birlikda, ham ko'plikda ishlatilishi mumkin.

Five and four is (are) nine. Beshni to'rtga qo'shsak to'qqiz bo'ladi.

Nine minus five is (are) four. To'qqizdan beshni ayirsak to'rt qoladi.

Three times four is (are) twelve. Uchni to'rtga ko'paytirsak o'n ikki bo'ladi.

4) 1 sanoq sonidan katta bo'lgan sonlar ingliz tilida har doim ko'plikda ishlatiladi. After ten days they returned. O'n kundan so'ng ular qaytishdi.

There are thirty-one days in January. Yanvar oyi o'ttiz bir kundan iborat.

There are three classes of reactors: slow, intermediate and fast. Reaktorlarning uch xil turi bor: sekin, o'rta va tez.

5) Hundred, thousand, million sonlari oldidan two, three, four va boshqa sanoq sonlar kelganda ularga –s qo'shimchasi qo'shilmaydi: two hundred, three thousand, four million. Hundred, thousand, million sonlari yuzlab, minglab, millionlab ma'nosida kelib, noaniq miqdorni bildirganda ularga –s qo'shimchasi qo'shiladi va bu holda ular otga aylanadi hamda of predlogi bilan birga ishlatiladi:

Hundreds of students were present at the meeting.

Majlisda yuzlab talabalar qatnashishdi.

Thousands of people greeted the Russian representatives.

Rossiyalik mehmonlar bilan minglab kishilar salomlashishdi.

Million soni oldidan two, three kabi sonlar kelganda va undan keyin boshqa sonlar kelmasa, ular –s qo'shimchasini oladi va otga aylanadi. Bu holatda million otidan keying ot of predlogi bilan ishlatiladi: two millions of books ikki millionta kitob.

6. Qo'shma uch xonali sonlarning o'nliklaridan oldin (agar ular bo'lmasa birliklaridan oldin) and bog'lovchisi qo'yiladi:

375 three hundred and seventy-five, 305 three hundred and five;

2,075 two thousand and seventy-five, 2,005 two thousand and five;

1,225,375 one million two hundred and twenty five thousand three hundred and seventy five.

7. Angilya va AQShda pul summasi quyidagicha o'qiladi:

1.Ingliz pul birligi pound funt yoki pound sterling funt sterling qisqartirilgan & belgisi (lotin tilidagi libra so'zidan olingan) bilan ishlatiladi. Agar u sondan oldin qo'yilgan bo'lsa, &1 (one pound yoki one pound sterling deb o'qiladi), &25 (twenty-five pounds yoki twenty-five pounds sterling deb o'qiladi).

2. Shilling pul birligi (1/20) qisqartirilib s. harfi bilan ifodalanadi: 12s. (twelve shillings deb o'qiladi). Shilling (penslar bo'lmaganda) sondan keyin qiyshiq kasr chizig'i bilan ifodalanadi: 12/-, 18/- .

3. Penny penspul birligi (1/20 funt) qisqartirib d. harfi bilan ifodalanadi (lotincha denarus denar so'zidan olingan va u sondan keyin qo'yiladi: 1 d. (one penny deb o'qiladi; 6 d. (sixpence deb o'qiladi). Penslar ham (shillinglar bo'lmaganda) sondan oldin qiyshiq chiziq va tire bilan ifodalanadi: -/1, -/8. Penslar miqdori ko'rsatilganda pence so'zi son bilan qo'shib yoziladi: twopence, threepence, sevenpence, elevenpence.

4. Shillinglar va penslardan iborat summalar quyidagicha ifodalanadi: 2s6d yohi 2/6 (two shillins and sixpence yoki two and six deb o'qiladi).

5. Funtlar, shillinglar va penslardan iborat summalar quyidagicha o'qiladi: £ 25 12s.; £25.12.8.; £25:12:8; £ 25-12-8 (twenty five pounds twelve shillings and eightpence yoki twenty-five pounds twelve and eight deb o'qiladi).

6. Amerika pul birligi dollar qisqartirib sondan oldin $ belgisi bilan ifodalanadi: $1 (one dollar deb o'qiladi); $25 (twenty-five dollars deb o'qiladi). Ba'zan dollar

miqdorini bildiruvchi sondan keyin nuqta va ikkita nol qo'yiladi (agar sentlar bo'lmasa): $1.00; $25.00.

7. Cent pul birligi (1/100 dollar) qisqartirib c belgisi bilan ifodalanadi: 1c (one cent deb o'qiladi); 65c (sixty-five cents deb o'qiladi). Sentlar quyidagicha ham ifodalanishi mumkin: $12, $50.

8. Dollarlar va sentlardan iborat summa quyidagicha ifodalanadi: $25.01 (twenty-five dollar and one cent deb o'qiladi); $34.10 (thirty-four dollars and ten cents deb o'qiladi); $3.350.55 (three thousand three hundred and fifty dollars and fifty-five cents deb o'qiladi).

9. Angilya va AQSh da telefon chaqiriqlari uchun telefonning har bir raqami alohida o'qiladi: 1235 – one two three five. 0 raqami [ou] deb o'qiladi. Telefon nomerining birinchi ikkita yoki oxirgi ikkita raqamlari bir xil bo'lsa double qo'sh, ikkita so'zi ishlatiladi: 6634 –double six three four; 3466 – three four double six. O'rtadagi ikkita raqam bir xil bo'lsa double so'zi ishlatilmaydi; 3446 – three four four six. 1000, 2000, 3000 kabi raqamlar one thousand, two thousand, three thousand deb o'qiladi.

Cardinal numerals. Sanoq sonlar

1 one bir, bitta
